

ÓTKIR XOSHIMOVNING "URUSHNING SÓNGGI QURBONI" HIKOYASINI
DIDAKTIK TAHLIL QILISH.

Namozova Feruza.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti Ózbek tili va adabiyoti yo'nalishi
2-bodqich talabasi.*

Ilmiy rahbar: Rasulova Rayhon Bahriddinova

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti Ózbek adabiyotshunosligi
kafedraasi p.f.f.d (PhD)*

Annotatsiya *Ushbu maqolada Ótkir Xoshimovning "Urushning snggi qurboni" hikoyasini didaktik tahlil qilish va o'quvchilarga tushuntirish.*

Kirish sz: *didaktik tahlil, Xadicha, Shoikrom, Shone'mat, Umri xola,*

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov Toshkentning Do'mbirobohdahasida 1941 yilning 5 avgustida tavallud topgan bo'lib, bolaligi urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan. Shu tufayli u o'rta maktabni a'lo baholar bilan bitirgan bo'lsa ham oilaviy sharoiti yuzasidan ishlab turib o'qishga majbur bo'lgan. Toshkent Davlat universiteti jurnalistika fakultetining sirtqi bo'limida o'qish bilan «Temiryo'lchi», «Toshkent haqiqati», «Qizil O'zbekiston» kabi gazetalarda turli yumushlarni bajargan." Yozuvchi o'zining kplab nodir hikoyalari qissalari romanlari bilan xaqimiz qalbimdan joy olib kelmoqda. Uning shunday asarlaridan biri "Urushning snggi qurboni" hikoyasi hisblanadi. Insoniyat tarixida eng dahshatli qirg'inbarot – Ikkinchi jahon urushi millionlab kishilar yostig'ini quritishdan tashqari odamlar ongi, ruhiyatida ham yomon o'zgarishlar yasadi. Ochlik, muhtojlik odamlarni asabiy, bir-biriga g'anim qilib qo'ydi, ayrimlarni egri yo'lga boshladi. «Urushning so'nggi qurboni» hikoyasi qahramoni Umri xola urush ketayotgan joylardan minglab kilometr uzoqda bo'lsa-da, halok bo'ladi. Umri xola o'limi sabablarini asarni o'qigach anglab olasiz. Asarni o'rganishga kirishishdan oldin o'qituvchu uning dasturiy talqini bilan tanishib chiqishi, va asarga qanday yondashish lozimligini qat'iyashtirib olishi zarur. Muallim hikoya matnini o'zi o'qib berishi va o'qish jarayonida obrazlarning holatini to'g'ri ifodalab berishi ya'ni Shoikromning holatini ifodalagan o'rinlarni, uning fikrlarini toliqqan ovoz bilan, o'aning ovozlari yumshoqroq ohangda, Xadichaning ovozini esa qalbakiroq, Shone'matning ovozini dardli, sinq tarzda ifoda etish maqsadga muvofiq. O'qituvchining obrazlar tizimi bilan ishlashi dars samadorligini oshishiga, o'quvchilar asarni yaxshiroq anglashlariga yordam beradi. Hikoya o'qib bo'lingach o'qituvchi bir oz vaqt o'quvchilarni ruhiy holatini kuzatishi zarur. Ular qanday holatda ekanligini, hikoya qahramonlari ruhiyati, dard-iztiroblari o'quvchilarga qanday ta'sir etganini aniqlab olishi kerak. Shundan keyin o'quvchilar knglida paydo bo'lgan turli hislarni ularning tiliga olib chiqishi uchun bir qator savollarni o'rtaga tashlashi mumkin. Matn mazmuni o'quvchilar tomonidan qayta hikoyalani bu ko'rilgan natijani bermaydi. Uning o'rniga qahramonlar haqida o'ylash, mulohaza yuritish, ularning kundalik hayoti, kechinmalari, xatti-harakatlarini taftish qilish orqali faollashib boradilar. Hikoya boshdan oyoq mahzun

ohangda bitilgan. Chunki asarda tasvirlangan taqdirlar, shu taqdirda namoyon b'olgan davr nuqtaiy nazari bilan bog'liq. Hikoyaning jiddiy tahlili o'quvchilarni hayotning nechog'lik murakkab ekanligiga, odam va uning amallari har qanday holatda ham to'g'ri bo'lmasligi, u haqida fikri aytish, munosabat bildirishi hamisha ham oson kechavermasligiga imo keltirishga majbur qiladi. Xadicha obrazining tabiatini baholash uchun o'quvchilar uning beshikda yotgan bolasiga, eriga, qaynonasiha munosabati, rozg'or tutimi haqida fikr bildirishlari lozim bo'ladi. Oshanda jizzaki, ayni vaqtda, eri va farzandlariga mehribon, tinib-tinchmas, ammo baxti qaro bu ayolning yaxshi yoki yomonligi to'g'risida ham qat'iy xulosa aytish mushkul. Og'ir turmush, yo'qchilik har bir odam uchun sinov, ba'zilar uchun esa, to'qchilik va farovonlik ham o'ziga xos bir sinov. Hamma ham bu sinovlardan birday o'ta olmaydi. Odamga xos asl fazilatlar ana shunday mushkul vaziyatlarni o'zini ko'rsatadi. Endi Shoikrom obraziga to'xtaladigan bolsak. Shoikrom- qahri qattiq ham, mehirsiz ham, yovuz ham emas. Xosh, buning uchun urushni, qashshoqlikni ayblash kerakmi? Yoki Shoikrom hayotning sinovlardan o'ta olmayaptimi? Vaziyatdan qanday chiqishni bilmagani uchun, balki hayolimga og'ridan qasos olish fikri kelgandur? Qilgan qaroridan nima uchun vujudi titrab ketdi? Bu nimadan dalolat beradi? Razolatga qarshi qabohat yo'li bilan kurashmaslikka aqli yetmagandur balki? Shuning uchun ham o'zi bo'lmagan va istamagan holda qotiliga aylangandur. Yana, o'z onasining qotiliga.... O'quvchilar shunday murakkab savollar ustida o'ylashi kerak.

Asardagi ona timsoli tahlil qilinayotganda o'quvchilar Umri xola katta og'lining oldiga chiqishi va: "Payshanba kuni Komil tabibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qoy suti ichsa dard ko'rmaganday bo'lib ketadi, dedi",-deya o'ziga gapirganday sekin" qoshib qoyishini va shu jumalalarni tahlil qilishi kerak. Ona hali ham og'lining sog'ayib ketishidan umid uzmagan. Ona baribir uyida bolasi sog'ayib ketishi uchun qolidan kelgancha harakat qilayotgandi.

Umri xola qulupnayni og'lidan nega sorab qo'ya qolmadi? Bor ovqatini o'z onasiga berdira olmagan katta og'ildan ona kichik og'li uchun qulupnay sorashi mumkinmidi yoki yo'qmi? O'quvchilar onaning shunday hattı harakatlarini ham oylab ko'rishi zarur. O'quvchilar asardagi fojia va baxtsizliklar sababchisi sifatida muallif singari urushni ko'rsatishar?! Balki kimlardir Shokiromni xasisligu, qasoskorlikda ayblar, ba'zilar betgachopar Xadichani ham fojia sababchisi sanar. Gap qotilni aniqlashda, aybdorni topishda emas. Hikoyaning didaktik tahlili yaknında har kim o'z xulosasida qolishi kerak. Ya'ni onaning halokatida "urush aybdor", "Shoikrom aybdor", "kampirning o'zi aybdor" va hk, deganlarning barchasi o'z qarashlari, xulosasini asoslab berdimi, o'z fikrida qolgani ma'qul. O'quvchilarning asar yuzasidan o'z fikrlari bo'ladi, o'qituvchi ulardan o'z fikrini singdirishga urinmasligi kerak.

Dars davomida o'quvchilarga muamoli vaziyat yaratın berish ham o'quvchilarni asarni yanada chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

Masalan:

Hikoya nima sababdan "Urushning songgi qurboni" deb ataldi?

Bu urushda songgi qurbon aslida kim?

Umri xolani bundaay ish qilishiga nima sabab bo'ldi? Shu qulupnayni og'lidan sorasa bermasmidi?

Shoikromning asardagi xatti harakatlarini qanday baxolaysiz?

Xadicha bu vaziyatda ózini nega bunday tutdi? Bunga nima sabab bóldi?

Bunday savollar asarda kóplab uchrashi mumkin. Asosiysi óquvchilar har bir savolga ustida chuqur mulohaza yuritishi zarur.

Dars oxirida óquvchilarga topshiriq sifatida hikoyani yana qanday davom ettirish mumkinligi sifatida uyga vazifa berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qunduzxon Husanboyeva, Róza Niyozmetova, "Adabiyot óqitish metodikasi". Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2022.
2. Ahmedov S va boshqalar. Adabiyot. Umumiy óрто ta'lim maktablari ING 6-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent: a'navigat, 2020
3. Umumiy óрта ta'lim maktablarining 5-9-sinfi uchun adabiyotdan óquv dasturiy. -T., RTM, 2017
4. Sh. I. Botirova "Adabiyot óqitish metodikasi".
5. Fayllar.uz
6. Arxiv uz